



ONLAYN TIJORAT
MAYDONCHASI



FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

brauzer tizimida ishlovchi
web-ilova uchun
Versiya: 1.0

Mundarija:

Kirish	2
Ilova tavsifi.....	2
Dasturiy ta'minot va uskuna talablari.....	2
Ilovani ochish.....	2
Ta'riflar.....	3
Foydalanishni boshlash	4
Ilova tilini tanlash	4
Ro'yxatdan o'tish	5
Tizimga kirish.....	6
Navigatsiya va funksional imkoniyatlar	7
Rasta.....	8
Asosiy	9
E'lonlar.....	10
Artikullar	11
Sotuvchilar.....	12
Xarid	13
Buyurtmalar.....	14
Savat	15
Taqqoslash.....	16
To'lov kartalari	17
Tijorat	18
Buyurtmalar.....	19
E'lonlar	20
Artikullar	21
Sotuvchilar.....	22
Eltib berish.....	23
Bulyurtmalar.....	24
Naqd pul	25
Foydalanuvchi.....	26
Akkaunt	27
Kartalar va buyurtmalar bilan ishslash.....	30
Varaq bilan ishslash.....	30
Buyurtma berish.....	34
Buyurtma ro'yxati	37
Yakuniy qism	38

Kirish

Foydalanuvchi qo'llanmasiga xush kelibsiz! Ushbu qo'llanma sizga onlayn tijorat maydonchasing brauzerlar uchun mo'ljallangan WEB ilovasining imkoniyatlari va xususiyatlari bilan tanishishda yordam beradi. Unda ilova bo'ylab navigatsiya va funksional imkoniyatlar, jumladan e'lonlarni, artikullarni va sotuvchilarni izlash, saralash va filtrlash, xarid va tijorat operatsiyalarini boshqarish hamda shaxsiy ma'lumotlarni o'rnatish va parametrlarni sozlash kabi jihatlar batafsил ko'rib chiqiladi. Ushbu ko'sratmalarga amal qilgan holda, maydonchaning xarid va tijorat uchun barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanishingiz mumkin bo'ladi.

Ilova tavsifi

Onlayn tijorat maydonchasi — bu brauzerlar uchun mo'ljallangan web-ilova bo'lib, mahsulotlar va xizmatlar tijorati uchun onlayn maydoncha hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar yoki sotuvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan tijorat nuqtalari, mahsulotlar hamda xizmatlar artikullari va tijorat e'lonlari haqida ma'lumotlarni joylashtirishlari va boshqarishlari mumkin. Xaridorlar esa o'z navbatida ularning kataloglarini ko'rib chiqish, ularni ko'rishlar, reyting, sharhlar va xaridlar bo'yicha saralash, filtrlash, taqqoslash, savatga qo'shish, mahsulotlarni eltib berish yoki o'zi olib ketish sharti bilan buyurtma berish hamda xizmatlarni joyiga chaqirish imkoniyatiga ega, shuningdek, buyurtmalar bo'yicha xabarnomalar yuboriladi. Ilovada karta yoki naqd pul bilan to'loymi amalga oshirish mumkin. Bu barcha onlayn tijorat ishtirokchilari uchun qulaylikni ta'minlaydi.

Dasturiy ta'minot va uskuna talablari

- Brauzer:** Google Chrome, Microsoft Edge, Firefox, Safari, Opera va boshqalar;
- Protsessor:** Intel Core i3 yoki ekvivalent AMD;
- Operativ xotira:** 2 GB (4 GB tavsiya etiladi);
- Ekran ruxsati:** 1366x768 yoki yuqoriroq;
- Internet:** internetga ularish imkoniyati bo'lgan Wi-Fi yoki boshqa tarmoq.

Ilovani ochish

Web-brauzer yordamida web-ilovasini ochish uchun quyidagi amallarni bajaring:

- Brauzerni oching:** Sizning kompyuteringizda yoki mobil qurilmangizda o'rnatilgan web-brauzerni (Google Chrome, Microsoft Edge, Firefox, Safari, Opera va boshqalar) oching.
- Web-ilovaning URL manzilini kiriting:** Brauzerning yuqori qismidagi manzil satriga tugmacha.uz manzilini kiriting.
- Enter tugmasini bosing:** Manzilni kiritganingizdan so'ng, **Enter** tugmasini bosing va brauzer web-ilovani yuklaydi.

Ta'riflar


Ushbu bo'limda ilovada ishlataladigan asosiy atamalar keltirilgan. Har bir ta'rif foydalanuvchiga maydonchadagi funksional imkoniyatlar va xarid-tijorat jarayonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu atamalar interfeys elementlarini, shuningdek, mahsulot va xizmatlarga buyurtma berish, buyurtma holatlari, sotuvchilar bilan o'zaro aloqalar hamda ilovada navigatsiyani qulayroq qilish uchun turli menyulardan foydalanishni tavsiflaydi.

- **Asosiy menu** — bu ilovaning o'ng tomonidan ochiladigan menu bo'lib, unda «Xarid», «Tijorat», «Eltib berish» va «Foydalanuvchi» kabi asosiy bo'limlar va ularga tegishli kichik bo'limlar mavjud. U ekranning yuqori o'ng burchagidagi foydalanuvchi ismining bosh harfi aks etgan tugmasiga bosish orqali ochiladi.
- **Kichik bo'lim menyusi** — bu kichik bo'lim ustida bajariladigan amallar uchun mo'ljallangan tugmalardan iborat menu bo'lib, u muloqot oynasining yuqori o'ng qismida joylashgan.
- **Ro'yxat menyusi** — bu muloqot oynasidagi tanlangan ro'yxat elementlari ustida bajariladigan amallar uchun mo'ljallangan menu bo'lib, u muloqot oynasining pastki qismida joylashadi.
- **Sotuvchi** — bu mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki tijoratchi va xizmat ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.
- **Artikul** — bu mahsulot yoki xizmat haqidagi umumiy ma'lumotlar va parametrlar bo'lib, u izlash, hisoblashni osonlashtirish uchun noyob identifikatsiya raqamini, shuningdek, rasm, sarlavha, tavsif, versiyalar va mahsulot yoki xizmatning xususiyatlarini o'z ichiga oladi.
- **E'lon** — bu xaridorlarni mahsulot yoki xizmatlarning mavjudligi haqida xabardor qiluvchi xabar. U rasmlar, sarlavha, tavsif, versiyalar, parametrlar, narx, chegirma va mahsulot yoki xizmatning mavjud miqdorini o'z ichiga oladi.
- **Varaq** — sotuvchi, artikul yoki e'longa tegishli ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda rasm, sarlavha, tavsif, parametrlar, sharhlar, holat va boshqa tegishli ma'lumotlar mavjud.
- **Buyurtma savati** — bu buyurtmaga tegishli mahsulotlar va xizmatlar ro'yxati, xaridor haqida ma'lumot, to'lov usuli, umumiy summa, buyurtma sanasi, xarid cheki va bajarilish holatini o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plami.
- **Buyurtma ro'yxati** — bu xaridor tomonidan xarid qilish uchun tanlangan barcha mahsulotlar va xizmatlarning ro'yxati. U har bir mahsulot yoki xizmatning sarlavhasi, miqdori, narxi va buyurtmaning umumiy qiymatini o'z ichiga oladi.
- **Buyurtma holati** — bu buyurtmaning joriy holati bo'lib, tijorat ishtirokchilariga buyurtmaning hozirgi bosqichi va taxminiy yetkazib berish vaqtini kuzatishga yordam beradi. Masalan:
 - **Xaridor tomonidan**
 - «Yaratilgan» — buyurtma xaridor tomonidan rasmiylashtirilgan.
 - «Qabul qilingan» — buyurtma yetkazib berilgandan keyin tasdiqlangan.
 - «Rad etilgan» — xaridor buyurtmani qabul qilishni rad etgan.
 - **Sotuvchi tomonidan**
 - «To'lovga» — buyurtma uchun to'lov amalga oshirilishi kerak.
 - «Qabul qilingan» — sotuvchi buyurtmani qabul qilgan va tayyorlamoqda.
 - «Rad etilgan» — sotuvchi buyurtmani bajara olmasligini bildirgan.
 - **Eltuvchi tomonidan**
 - «To'lovga» — buyurtma uchun to'lov amalga oshirilishi kerak.
 - «Yo'lda» — buyurtma yetkazib berish jarayonida.
 - «Rad etilgan» — eltuvchi buyurtmani yetkazib bera olmasligini bildirgan.

Foydalanishni boshlash

Ushbu bo'limda ilovadan foydalanishni boshlash uchun kerakli asosiy qadamlar tasvirlangan. Siz ilovaning tilini qanday tanlash, ro'yxatdan o'tish va tizimga kirish jarayonlarini bilib olasiz. Ro'yxatdan o'tish shaxsiy ma'lumotlarni kiritish va telefon raqamini SMS orqali yuborilgan kod bilan tasdiqlashni o'z ichiga oladi. Ro'yxatdan o'tganingizdan so'ng, telefon va parol yordamida shaxsiy akkauntga kirishingiz mumkin bo'ladi. Ushbu oddiy qadamlar ilovani qulay va xavfsiz foydalanish uchun sozlashda yordam beradi.

Ilova tilini tanlash




1-rasm.

Ilova uchta tilni qo'llab-quvvatlaydi: o'zbek, rus va ingлиз tillari. Ilova ilk marta ishga tushirilganda, avtomatik ravishda o'zbek tili tanlanadi.

Foydalanuvchi, shuningdek, ilovaning tilini mustaqil ravishda o'zgartirishi mumkin (1-rasmga qarang). Buning uchun ekranning yuqori o'ng burchagida joylashgan joriy til kodi aks etgan tugmani bosib, ochilgan ro'yxatdan kerakli tilni tanlash lozim (1.1).

Ro'yxatdan o'tish




2-rasm.

Agar ommaviy oferta shartlari bilan tanishib chiqqan bo'lsangiz va ilovadan foydalanishni boshlashga tayyor bo'lsangiz, quyidagi qadamlarni bajaring (2-rasmga qarang):

- Illovaning yuqori o'ng burchagida joylashgan, odam qiyofasi aks etgan tugmani bosing (2.1).
- Ochilgan oynada yuqori qismdagi "RO'YXATDAN O'TISH" bo'limiga o'ting (2.2).
- Quyidagi maydonlarni to'ldiring:
 - **Telefon:** telefon raqamingizni kriting;
 - **Parol:** parol o'ylab toping va kriting;
 - **Parolni takrorlang:** tasdiqlash uchun parolni yana bir bor kriting.
- "RO'YXATDAN O'TISH" tugmasini bosing va SMS orqali kod kelishini kuting.
- SMS orqali yuborilgan kodni kriting.
- Ro'yxatdan o'tishni yakunlash uchun "RO'YXATDAN O'TISH" tugmasini bosing.

Shundan so'ng tizim ma'lumotlaringizni tekshiradi va tekshiruv muvaffaqiyatli yakunlangach, ro'yxatdan o'tishingiz yakunlanadi.

Tizimga kirish




3-rasm.

Ro'yxatdan muvaffaqiyatli o'tganingizdan so'ng tizimga kirish uchun quyidagi qadamlarni bajaring (3-rasmga qarang):

- Ilovaning yuqori o'ng burchagida joylashgan, odam qiyofasi aks etgan tugmani bosing (3.1).
- Ochilgan oynada yuqori qismdagi "KIRISH" bo'limiga o'ting (3.2).
- Quyidagi maydonlarni to'ldiring:
 - **Telefon:** ro'yxatdan o'tishda kiritilgan telefon raqamingizni kriting;
 - **Parol:** parolingizni kriting. Agar parolni unutgan bo'sangiz, "Parolni tiklash" tugmasini bosib tiklash jarayonidan o'ting.
 - **Tasdiqlash ko'di:** agar ikki bosqichli tasdiqlash yoqilgan bo'lsa SMS orqali kod yuboriladi.
- "KIRISH" tugmasini bosing.

Shundan so'ng tizim ma'lumotlaringizni tekshiradi va tekshiruv muvaffaqiyatli yakunlangach, akkauntingizga kirish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Navigatsiya va funksional imkoniyatlar




4-rasm.

Asosiy navigatsion menu onlayn-tijorat maydonchasi interfeysining muhim qismi bo'lib, foydalanuvchilarga ilovaning asosiy bo'limlari va funksiyalariga qulay kirishni ta'minlaydi. U quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi va ular keyingi bo'limlarda bat afsil yoritiladi (4-rasmga qarang):

- **Rasta** – barcha foydalanuvchilar uchun ochiq;
- **Xarid** – faqat tizimga kirgandan so'ng ochiladi;
- **Tijorat** – faqat tizimga kirgandan so'ng va tegishli rolga ega foydalanuvchilar uchun;
- **Eltib berish** – faqat tizimga kirgandan so'ng va tegishli rolga ega foydalanuvchilar uchun;
- **Foydalanuvchi** – barcha foydalanuvchilar uchun ochiq.

Rasta



5-rasm.

Rasta bo'limi — bu onlayn-tijorat maydonchasining markaziy qismi bo'lib, foydalanuvchilar mavjud mahsulotlar va xizmatlarning barcha asosiy kategoriylarini ko'rib chiqishlari mumkin. Bu yerda e'lolar, artikullar va sotuvchilar varaqlari aks etadi, bu esa kerakli ma'lumotlarni tez va qulay topishni ta'minlaydi. Foydalanuvchilar vertikal o'tkaziladigan tasma yordamida turli elementlar o'rtaida osongina harakatlanishlari va mavjud funksiyalar orqali saralash, filtrlash va ma'lumotlarni boshqarishlari mumkin.


Bo'lim quyidagi kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi va ular keyingi bo'limlarda batafsil yoritiladi (5-rasmga qarang):

- Asosiy (5.1);
- E'lolar (5.2);
- Artikullar (5.3);
- Sotuvchilar (5.4).

Shuningdek, quyidagi boshqaruvi elementlari mavjud (5-rasmga qarang):

- **Izlash** — “E'lolar”, “Artikullar” yoki “Sotuvchilar” bo'limi tanlangan bo'lsa, tugma bosilganda tegishli bo'limdagи varaqlarni sarlavhasi bo'yicha izlash imkoniyati faollashadi (5.5);
- **Taqqoslash** — “Tijorat” bo'liminimg “Taqqoslash” kichik bo'limiga qarang (5.6);
- **Savat** — “Tijorat” bo'liminimg “Savat” kichik bo'limiga qarang (5.7);

Asosiy




6-rasm.

«Asosiy» kichik bo'limidagi tasmada odatda uch xil gorizontal ravishda o'tkaziladigan e'lolar, artikullar va sotuvchilar varaqlari aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (6-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Asosiy» (6.1);
- **Tasma** — gorizontal ravishda o'tkaziladigan e'lolar, artikullar va sotuvchilar varaqlari;
- **Batafsil** — har bir gorizontal ravishda o'tkaziladigan varaqlar bo'limining yuqori o'ng qismidagi tugma bo'lib, bosilganda ushbu turdag'i varaqlar ro'yxatiga o'tiladi (6.2);
- **O'tkazish tugmalari** — gorizontal ravishda o'tkaziladigan varaqlarini ortga yoki oldga varaqlash (6.3).

E'lonlar




7-rasm.

"E'lonlar" kichik bo'limidagi tasmada sotuvchilar tomonidan joylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar sotilishi haqida e'lonlar ro'yxati aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (7-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «E'lonlar» (7.1);
- **Tasniflash** — e'lonlar ro'yxatini quyidagi sozlamalar bo'yicha tasniflash mumkin (7.2):
 - **Saqlangan turkumlar** — foydalanuvchi tomonidan saqlangan turkumlar bo'lib, yangi turkumni saqlash uchun kerakli turkumlarni tanlagach, ko'rsatgichni ushbu tugma ustiga olib kelinganda aks etgan qo'shuv belgisiga bosish lozim;
 - **E'lonlar** — barcha e'lonlar to'rt darajali turkumlar bo'yicha tasniflandi va har bir turkum bo'yicha e'lonlar soni aks etadi. Eng quyi darajadagi turkum tanlanganda, turkumga tegishli sozlamalar ham aks ettiriladi.
- **Saralash** — e'lonlar ro'yxatini quyidagilar sozlamalar bo'yicha saralash mumkin (7.3):
 - **Sevimlilar** — sevimli varaqlar ro'yxati;
 - **Mezon** — sana, ko'rishlar, reyting, sharhlar, xaridlar va narx bo'yicha o'sish yoki kamayish tartibini belgilash;
 - **Sana** — minimal va maksimal sanani belgilash;
 - **Narxi** — minimal va maksimal narxni belgilash;
- **Tasma** — e'lonlar varaqlari ro'yxati. Varaqlarda rasm, sarlavha, tavsif, narx, ko'rishlar, reyting, sharhlar va xaridlar haqida ma'lumotlar aks etadi. E'lonlar ustida amallar:
 - Varaqga bosilganda unga kirish («Varaqni ko'rish» bo'limiga qarang);
 - Sevimlilar va taqqoslash ro'yxtigiga qo'shish va o'chirish (7.4).

Artikullar




8-rasm.

"Artikullar" kichik bo'limidagi tasmada etkazuvchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan joylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar artikullari ro'yxati aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (8-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Artikullar» (8.1);
- **Tasniflash** — artikullar ro'yxatini quyidagi sozlamalar bo'yicha tasniflash mumkin (8.2):
 - **Saqlangan turkumlar** — foydalanuvchi tomonidan saqlangan turkumlar bo'lib, yangi turkumni saqlash uchun kerakli turkumlarni tanlagach, ko'rsatgichni ushbu tugma ustiga olib kelinganda aks etgan qo'shuv belgisiga bosish lozim;
 - **Artikullar** — barcha artikullar to'rt darajali turkumlar bo'yicha tasniflanadi va har bir turkum bo'yicha artikullar soni aks etadi. Eng quyi darajadagi turkum tanlanganda, turkumga tegishli sozlamalar ham aks ettiriladi.
- **Saralash** — artikullar ro'yxatini quyidagilar sozlamalar bo'yicha saralash mumkin (8.3):
 - **Sevimlilar** — sevimli varaqlar ro'yxati;
 - **Mezon** — sana, ko'rishlar, reyting, sharhlar va xaridlar bo'yicha o'sish yoki kamayish tartibini belgilash;
 - **Sana** — minimal va maksimal sanani belgilash;
- **Tasma** — artikullar varaqlari ro'yxati. Varaqlarda rasm, sarlavha, tavsif, ko'rishlar, reyting, sharhlar va xaridlar haqida ma'lumotlar aks etadi. Artikullar ustida amallar:
 - Varaqga bosilganda unga kirish («Varaqni ko'rish» bo'limiga qarang);
 - Sevimlilar va taqqoslash ro'yxatiga qo'shish va o'chirish (8.4).

Sotuvchilar




9-rasm.

"Sotuvchilar" kichik bo'limidagi tasmada mahsulotlar va xizmatlar etkazib beruvchilar ro'yxati aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (9-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Sotuvchilar» (9.1);
- **Tasniflash** — sotuvchilar ro'yxatini quyidagi sozlamalar bo'yicha tasniflash mumkin (9.2):
 - barcha sotuvchilar tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat sohasi, telefon, STIR/JSHSHIR, mamlakat, viloyat va tuman kabi ettita mezon bo'yicha tasniflanadi va har bir mezon bo'yicha sotuvchilar soni aks etadi.
- **Saralash** — sotuvchilar ro'yxatini quyidagilar sozlamalar bo'yicha saralash mumkin (9.3):
 - **Sevimlilar** — sevimli varaqlar ro'yxati;
 - **Mezon** — sana, ko'rishlar, reyting, sharhlar va xaridlar bo'yicha o'sish yoki kamayish tartibini belgilash;
 - **Sana** — minimal va maksimal sanani belgilash;
- **Tasma** — sotuvchilar varaqlari ro'yxati. Varaqlarda rasm, sarlavha, tavsif, ko'rishlar, reyting, sharhlar va xaridlar haqida ma'lumotlar aks etadi. Sotuvchilar ustidagi amallar:
 - Varaqga bosilganda unga kirish («Varaqni ko'rish» bo'limiga qarang);
 - Sevimlilar va taqqoslash ro'yxatiga qo'shish va o'chirish (9.4).

Xarid




10-rasm.

"Xarid" bo'limida xaridorlar tomonidan mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha buyurtmalar, savat ro'yxati, taqqoslash va to'lov kartalari kabilarni boshqarish ishlari amalga oshiriladi. Bu yerda siz savatingiz tarkibini boshqarishingiz, yangi buyurtmalar joylashtirishingiz, rasmiylashtirilgan buyurtmalar holatini kuzatishingiz va to'lov usullarini sozlashningiz mumkin.

Bo'lim quyidagi kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi va ular keyingi bo'limlarda batafsil yoritiladi (10-rasmga qarang):

- Buyurtmalar (10.1);
- Savat (10.2);
- Taqqoslash (10.3);
- To'lov kartlari (10.4).

Buyurtmalar




11-rasm.

"Buyurtmalar" kichik bo'limida xaridor tomonidan rasmiylashtirilgan buyurtmalar savatlari ro'yxati aks etdi, shuningdek, xaridor buyurtmalarini boshqaradi. Kichik bo'lim oynasida quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (11-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Xarid / Buyurtmalar» (11.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (11.2):
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (11.3):
 - **Cheklar** — yopiq holatdagi buyurtmalarga tegishli cheklar ro'yxati;
 - **Ro'yxat** — buyurtma ro'yxatini ochish ("Buyurtma ro'yxati" bo'limiga qarang).
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega buyurtma savatlari aks etadi: identifikator, sana, to'lov usuli, summa, holati (ochiq yoki yopiq). Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Savat




12-rasm.

"Savat" kichik bo'limida xaridor tomonidan savatga qo'shilgan mahsulotlar va xizmatlar ro'yxati aks etadi, shuningdek, xaridor savatni boshqaradi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (12-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Xarid / Savat / Mahsulotlar | Xizmatlar» (12.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (12.2):
 - **Almashtirish** — mahsulotlar va xizmatlar ro'yxatini almashtirish;
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (12.3):
 - **O'chirish** — tanlangan ro'yxat elementlarini o'chirish;
 - **Ko'rish** — tanlangan ro'yxat elementlarini ko'rish («Varaqni ko'rish» bo'limiga qarang);
 - **Buyurtma berish** — tanlangan elementlar bo'yicha buyurtma berishga o'tish ("Buyurtma berish" bo'limiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elementlar aks etadi: identifikator, sarlavha, versiya, miqdor, narx va sana. Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Taqqoslash




13-rasm.

"Taqqoslash" kichik bo'limida xaridor tomonidan taqqoslash uchun qo'shilgan mahsulotlar va xizmatlar tasniflari ro'yxati aks etadi, shuningdek, xaridor taqqoslash ro'yxatni boshqaradi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (13-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Xarid / Taqqoslash / E'lonlar | Artikullar» (13.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (13.2):
 - **Almashtirish** — e'lonlar va artikullar ro'yxatini almashtirish;
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi:**
 - **O'chirish** — tanlangan ro'yxat elementlarini o'chirish.
 - **Ko'rish** — tanlangan tasnif bo'yicha e'lonlar yoki artikullar varaqlarini taqqoslash jadvalini ko'rish («Taqqoslash jadvali» bo'limiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elementlar aks etadi: identifikator, guruh, kichik guruh, toifa va kichik toifa. Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

To'lov kartalari




14-rasm.

"To'lov kartalari" kichik bo'limida xaridor tomonidan buyurtmalar to'lovini amalga oshirish uchun qo'shilgan to'lov kartalari ro'yxati aks etadi va xaridor to'lov kartalarni boshqaradi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (14-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «To'lov kartalari» (14.1);
- **Karta qo'shish** — sarlavhaning o'ng tomonidagi yangi to'lov kartasini qo'shish tugmasi. Tugmani bosganingizda, muloqot oynasi ochilganidan so'ng, quyidagi amallarni bajaring:
 - Karta raqami va amal qilish muddatini kriting;
 - "KODNI OLISH" tugmasini bosing va kartaga biriktirilgan telefon raqamiga SMS orqali kod kelishini kuting;
 - Olingan tasdiqlash kodini kriting va "YUBORISH" tugmasini bosing.
- Shundan so'ng tizim kiritilgan ma'lumotlarni tekshiradi va agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, karta ro'yxatga qo'shiladi.
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega to'lov kartalari aks etadi: karta raqami, amal qilish muddati, karta egasining nomi, asosiy holati (agar karta asosiy bo'lsa, yulduzcha aks etadi). To'lov kartalari ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Asosiy** — kartani asosiy qilish yoki aksincha;
 - **O'chirish** — tanlangan kartani o'chirish;

Tijorat




15-rasm.

"Tijorat" bo'limida sotuvchi tomonidan buyurtmalar, e'lolar, artikullar, sotuvchilar va tijorat jarayonining boshqa jihatlarini boshqarish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bo'lim mahsulotlar yoki xizmatlarni sotuvchi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Bo'lim quyidagi kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi va ular keyingi bo'limlarda batafsil yoritiladi (15-rasmga qarang):

- Buyurtmalar (15.1);
- E'lolar (15.2);
- Artikullar (15.3);
- Sotuvchilar (15.4).

Buyurtmalar




16-rasm.

"Buyurtmalar" kichik bo'limida xaridorlar tomonidan berilgan buyurtmalar savatlari aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (15-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Tijorat / Buyurtmalar» (16.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (16.2):
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (16.3):
 - **Tafsilotlar** — buyurtma identifikatori, sana, xaridor, buyurtmalar, telefon, to'lov usuli kabi buyurtma tafsilotlarini ko'rish;
 - **Ro'yxat** — buyurtma ro'yxatini ochish ("Buyurtma ro'yxati" bo'limiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega buyurtma savatlari aks etadi: identifikator, sana, to'lov usuli, summa, holati (ochiq yoki yopiq). Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

E'lolar




17-rasm.

"E'lolar" kichik bo'limida sotuvchining mahsulotlari va xizmatlarini sotish bo'yicha e'lolar ro'yxati aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (17-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Tijorat / E'lolar» (17.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (17.2):
 - **Yaratish** — yangi e'lon yaratish. Yaratish uchun quyidagi amallarni bajaring:
 - ✓ Sarlavha va tavsifni kriting;
 - ✓ Sotuvchi va artikulni tanlang;
 - ✓ Versiya qo'shish (maksimal 10 ta versiya);
 - ✓ Har bir versiya uchun ontagacha rasm tanlang;
 - ✓ Versiya nomini kriting;
 - ✓ Har bir versiyada parametrlarni to'ldiring;
 - ✓ Har bir versiya uchun mavjud miqdor, narx va chegirmani kriting;
 - ✓ "Yaratish" tugmasini bosing.
 - Shundan so'ng tizim ma'lumotlarni tekshiradi va agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, yangi e'lon "Yaratilgan" holati bilan ro'yxatga qo'shiladi;
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (17.3):
 - **Faol qilish** — tanlangan ro'yxat elementlarini faollashtirish;
 - **Bekor qilish** — tanlangan ro'yxat elementlarini bekor qilish;
 - **O'chirish** — tanlangan ro'yxat elementlari holati "Yaratilgan" bo'lsa, o'chirish.
 - **Ko'rish** — varaqni ko'rish («Varaqni ko'rish» bo'limiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega e'lolar ro'yxati aks etadi: identifikator, sarlavha, tavsif, sana, holat. Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Artikullar



18-rasm.


"Artikullar" kichik bo'limida sotuvchiga tegishli bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar artikullar ro'yxati aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (18-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Tijorat / Artikullar» (18.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (18.2):
 - **Yaratish** — yangi artikul yaratish. Yaratish uchun quyidagi amallarni bajaring:
 - ✓ Sarlavha va tavsifni kiriting;
 - ✓ Tasniflashni tanlang;
 - ✓ Versiya qo'shinh (maksimal 10 ta versiya);
 - ✓ Har bir versiya uchun o'ntagacha rasm tanlang;
 - ✓ Versiya nomini kiriting;
 - ✓ Har bir versiyada parametrlarni to'ldiring;
 - ✓ "Yaratish" tugmasini bosing.

Shundan so'ng tizim ma'lumotlarni tekshiradi va agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, yangi artikul "Yaratilgan" holati bilan ro'yxatga qo'shiladi;

 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (18.3):
 - **Faol qilish** — tanlangan ro'yxat elementlarini faollashtirish;
 - **Bekor qilish** — tanlangan ro'yxat elementlarini bekor qilish;
 - **O'chirish** — tanlangan ro'yxat elementlari holati "Yaratilgan" bo'lsa, o'chirish;
 - **Ko'rish** — varaqni ko'rish («Varaqni ko'rish» bo'limiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega artikullar aks etadi: ID, sarlavha, tavsif, sana, holat. Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Sotuvchilar




19-rasm.

"Sotuvchilar" kichik bo'llimida mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchiga tegishli bo'lgan savdo yoki xizmat ko'rsatish nuqtalari ro'yxati aks etadi. Kichik bo'llim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (19-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Tijorat / Sotuvchilar» (19.1);
- **Kichik bo'llim menyusi** (19.2):
 - **Yaratish** — yangi sotuvchi yaratish. Yaratish uchun quyidagi amallarni bajaring:
 - ✓ O'ntagacha rasmni tanlang;
 - ✓ Sarlavha va tavsifni kiriting;
 - ✓ Parametrlarni to'ldiring;
 - ✓ "Yaratish" tugmasini bosing.Shundan so'ng tizim ma'lumotlarni tekshiradi va agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, yangi sotuvchi "Yaratilgan" holati bilan ro'yxatga qoshiladi;
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'llimni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (19.3):
 - **Faol qilish** — tanlangan ro'yxat elementlarini faollashtirish;
 - **Bekor qilish** — tanlangan ro'yxat elementlarini bekor qilish;
 - **O'chirish** — tanlangan ro'yxat elementlari holati "Yaratilgan" bo'lsa, o'chirish.
 - **Ko'rish** — varaqni ko'rish («Varaqni ko'rish» bo'llimiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega sotuvchilar aks etadi: identifikator, sarlavha, sana, hisob, holat. Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Eltib berish




20-rasm.

"Eltib berish" bo'limida eltib berish xizmatini ko'rsatuvchilar tomonidan xaridorlar mahsulotlarni eltib berish uchun berilgan buyurtmalarni boshqarish, shuningdek, eltib berilgan mahsulotlar uchun olingan naqd pullarni hisobini yuritish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bo'limda eltib beruvchilar buyurtmalarning va topshirilgan naqd pullarning holatlarini kuzatishlari mumkin.

Bo'lim quyidagi kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi va ular keyingi bo'limlarda batafsil yoritiladi (20-rasmga qarang):

- Buyurtmalar (20.1);
- Naqd pul (20.2).

Bulyurtmalar




21-rasm.

"Buyurtmalar" kichik bo'limida mahsulotlarni eltib berish uchun xaridordan tushgan buyurtmalar savatlari ro'yxati aks etadi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (21-rasmga qarang):

- **Sarlavha:** «Eltib berish / Buyurtmalar» (21.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (21.2):
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (21.3):
 - **Tafsilotlar** — buyurtma identifikatori, sana, xaridor, buyurtmalar, telefon, to'lov usuli kabi buyurtma tafsilotlarini ko'rish;
 - **Ro'yxat** — buyurtma ro'yxatini ochish ("Buyurtma ro'yxati" bo'limiga qarang);
- **Ro'yxat** — ro'yxatda quyidagi ma'lumotlarga ega buyurtma savatlari aks etadi: identifikator, sana, to'lov usuli, summa, holati (ochiq yoki yopiq). Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Naqd pul




22-rasm.

"Naqd pul" kichik bo'limaldi eltib berilgan mahsulotlar uchun olingan naqd pullar hisobi yuritiladi va boshqaradi. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (21-rasmiga qarang):

- **Sarlavha:** «Eltib berish / Naqd pul» (22.1);
- **Kichik bo'lim menyusi** (22.2):
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (22.3):
 - **Topshirish** — bankka naqd pul topshirilgandan so'ng, ushbu tugmani bosganingizda, tanlangan ro'yxat elementlari uchun umumiy miqdor ko'rsatilgan muloqot oynasi paydo bo'ladi. Shundan so'ng naqd pullar topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat raqami va sanasini kriting va "SAQLASH" tugmasini bosing. Shundan so'ng tizim tanlangan element "To'langan" holatiga o'tkazadi;
 - **Ro'yxat** — quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qabul qilingan naqd pullar ro'yxati aks etadi: identifikator, mahsulot yoki xizmat nomi, summa, holat (olindi, to'landi). Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Foydalanuvchi



23-rasm.

"Foydalanuvchi" bo'limda foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini, xabarnomalarni, xavfsizligini hamda xaridor va sotuvchi sozlamalarini boshqarish ishlari amalga oshiriladi, shuningdek, foydalanuvchi tizimdan chiqishi ham mumkin.

Bo'lim quyidagi kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi va ular keyingi bo'limlarda batafsil yoritiladi (23-rasmga qarang):

- Akkaunt (23.1);
- Chiqish — tizimdan chiqish (23.2).

Akkaunt


"Akkaunt" kichik bo'limi foydalanuvchining shaxsiy akkaunti bo'lib, unda o'z ma'lumotlari va sozlamalarini boshqarishi mumkin. Bu erda foydalanuvchi ism, telefon raqami, elektron pochtasi kabi shaxsiy ma'lumotlarini o'zgartirishi, shuningdek, xavfsizlik sozlamalarini, jumladan parolni o'zgartirish va ikki faktorli autentifikatsiyani sozlashi mumkin. Xabarnoma sozlamalari ham ushbu bo'limda mavjud. Kichik bo'lim oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (24-26-rasmlarga qarang):

Umumiyl	
UUID	TSF1000007
Ismi	Foydalanuvchi
Telefon	998900236469
Email	ildar_sef@mail.ru

Xavfsizlik	
Ikki faktorli autentifikatsiya	<input type="checkbox"/>
Parolni o'zgartirish	>

24-rasm.

- **Umumiyl** (24.1):
 - **UUID** — foydalanuvchining noyob identifikatori;
 - **Ism** — foydalanuvchining ismi. Ismni bosish, tahrirlashni faollashtiradi;
 - **Telefon** — foydalanuvchining telefon raqami. Raqamni bosish, tahrirlashni faollashtiradi;
 - **Email** — foydalanuvchining elektron pochta manzili. Manzilni bosish, tahrirlashni faollashtiradi;



25-rasm.


- **Xavfsizlik (25.1):**

- **Ikki faktorli autentifikatsiya** — ikki faktorli autentifikatsiyani yoqish yoki o'chirish. Odatda ushbu funksiya o'chirilgan bo'ladi;
- **Parolni o'zgartirish** — akkauntga kirish parolini o'zgartirish. Parolni o'zgartirish uchun ushbu tugmani bosing va ochilgan mulaqot oynasida quyidagi amallarni bajaring:
 - Yangi parolni kriting, parolni takrorlang va joriy parolni kriting;
 - "YUBORISH" tugmasini bosing. Ikki faktorli autentifikatsiya yoqilgan bo'lsa, raqamingizga tasdiqlash kodi yuboriladi va kiritish maydoni paydo bo'ladi.
 - Tasdiqlash kodini kriting va yana "YUBORISH" tugmasini bosing.

Shundan so'ng tizim kiritilgan ma'lumotlarni tekshiradi. Agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, parolni o'zgartirish muvaffaqiyatli yakunlanadi va tizim tegishli xabarni beradi.

- **Xabarnoma (25.2):**

- **Buyurtmalar** — buyurtmalar xabarnomalarini yoqish yoki o'chirish;
- **Yangiliklar** — yangiliklar xabarnomalarini yoqish yoki o'chirish;
- **Arzon sotuv** — arzon savut xabarnomalarini yoqish yoki o'chirish.



26-rasm.


- **Xaridor** (26.1):
 - **Holati** — xaridor holatini yoqish yoki o'chirish;
 - **Buyurtmalar** — qabul qilingan va rad etilgan buyurtmalar soni.
 - **Hisob** — foydalanuvchi hisobidagi mablag'lar miqdori. Hisob ustida amallar:
 - Hisobni to'ldirish;
 - Hisobdan mablag'larini yechib olish;
 - Mablag'lar tushumlari va chiqimlari tarixi.
- **Sotuvchi** (26.2):
 - **Holati** — sotuvchi holatini yoqish yoki o'chirish;
 - **STIR** — soliq to'lovchining identifikatsiya raqami.
- **Eltuvchi** (26.3):
 - **Holati** — eltuvchi holatini yoqish yoki o'chirish.

Varaqlar va buyurtmalar bilan ishlash

"Varaqlar va buyurtmalar bilan ishlash" bo'limida mahsulot va xizmatlar bo'yicha e'lolar, artikullar hamda sotuvchilar varaqlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish, shuningdek buyurtmalarni joylashtirish, boshqarish, kabi jarayonlar ko'rib chiqiladi.


Varaq bilan ishlash

E'lolar, artikullar va sotuvchilar varag'ini ko'rish oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (27-30-rasmga qarang):




27-rasm.

- **Navigatsiya paneli** (27.1) — panelda quyidagi boshqaruv elementlari mavjud:
 - Chap va o'ng tomaonlarga ko'rsatgichlar — oldingi yoki keyingi varaqga o'tish;
 - Varaq turini tanlash — e'lol, artikul yoki sotuvchi varag'ini tanlash;
 - Versiyasini tanlash — e'lol, artikul yoki sotuvchi varag'iga tegishli versiyani tanlash;
- **Rasmlar** (27.2) — e'lol, artikul yoki sotuvchiga tegishli rasmlar. Asosiy rasmning o'ng qismida, soni o'ntagacha bo'lgan, vertikal ravishda joylashgan rasmlarni tanlash orqali ko'rildi;




28-rasm.

- «**Ma'lumot**» yorlig'i (28.1) — yorliq quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:
 - Sarlavha;
 - Tavsif;
 - Versiya;
 - Narx (faqat e'lion uchun);
 - Chegirma (faqat reklama);
 - Miqdori (faqat e'lion uchun);
 - Parametrlar.
- «**Sharhlar**» yorlig'i (28.2) — sharh qoldirish uchun "Qo'shish" tugmasini bosing va ochilgan maydonda sharhingizni kiritib, "Yuborish" tugmasini bosing. Shuningdek, xaridorlar tomonidan qoldirilgan quyidagi ma'lumotlarga ega sharhlar ro'yxati aks etadi:
 - Foydalanuvchi ismi;
 - Bahos;
 - Vaqt va sana;
 - Sharh matni.
- «**Holati**» yorlig'i (28.3) — yorliqda onlayn tijorat ishtirokchilarining o'zaro harakatlari tarixi quyidagi ma'lumotlar bilan aks etadi (faqat savat va buyurtmalarni ko'rishda):
 - Foydalanuvchi roli;
 - Foydalanuvchi harakati / holati;
 - Vaqt va sanasi.



29-rasm.

- “Savatga” va “Buyurish” tugmalari (29.1) — mos ravishda joriy mahsulot yoki xizmatni savatga qo'shish yoki buyurtma berish. Savatga qo'shish yoki buyurtma berish uchun quyidagi amallarni bajaring (faqat "Rasta" bo'limidagi e'lolar uchun):
 - E'lol varag'ining "Ma'lumot" yorlig'ida barcha parametrlarni to'ldiring (agar talab etilsa);
 - Miqdorni “-” va “+” tugmalari yordamida belgilang yoki klaviatura yordamida kriting;
 - "Savatga" yoki "Buyurish" tugmasini bosing;
 Shundan so'ng, agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, ko'rsatilgan miqdor, mos ravishda, savatga qo'shiladi yoki buyurtma berish uchun tegishli oynaga o'tiladi (“Buyurtma berish” bo'limiga qarang).




30-rasm.

- «**Kamaytirish**» yo'ki «**Ko'paytirish**» tugmasi (30.1) — mos ravishda joriy mahsulot yoki xizmat e'londa mavjud miqdorni kamaytirish yoki ko'paytirish. Kamaytirish yoki ko'paytirish uchun quyidagi amallarni bajaring (faqat "Tijorat" bo'limidagi e'lon uchun):
 - E'lon varag'ining "Ma'lumot" yorlig'ida barcha parametrlarni to'ldiring (agar talab etilsa);
 - Miqdorni “-” va “+” tugmalari yordamida belgilang yoki klaviatura yordamida kriting;
 - «**Kamaytirish**» yo'ki «**Ko'paytirish**» tugmasini bosing.

Shundan so'ng, agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, mos ravishda, joriy mahsulot yoki xizmatning mavjud miqdori ko'rsatilgan miqdorga kamaytiriladi yoki ko'paytiriladi.


Buyurtma berish

Onlayn tijorat maydonchasida buyurtma rasmiylashtirishda eltib berish yoki olib ketish usulini tanlashingiz, to'lojni karta yoki naqd pul shaklida amalga oshirishingiz mumkin, hisob-kitob esa buyurtma narxi, eltib berish xarajati, maydoncha komissiyasi va jami summani o'z ichiga oladi. Buyurtma berish mulaqot oynasi quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (31-33-rasmlarga qarang):




31-rasm.

- “**Olish usuli**” bo‘limi (31.1) — qabul qilish usullaridan birini tanlang:
 - Eltib berish — ro'yxatdan eltib berish xizmatini tanlash va xaritada eltib berish joyini belgilash lozim (faqat mahsulotlar uchun);
 - Olib ketish — siz o'zingiz uchun qulay vaqtida sotuvchidan mahsulotni o'zingiz olishingiz mumkin. Buyurtma berilgandan va etkazib beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, sizga mahsulotning tayyorligi to'g'risida ma'lumot yuboriladi.



32-rasm.

- "**To'lov usuli**" bo'limi (32.1) — to'lov usullaridan birini tanlang:
 - To'lov kartasi — agar avtomatik ravishda tanlanmagan bo'lsa, to'lov kartasini tanlang. Karta tanlangach, to'lov kartasining raqami hamda egasining ismi va familiyasi aks etadi;
 - Naqd pul — sotuvchi, eltib beruvchi yoki ijrochidan buyurtmani qabul qilib olganingizda mahsulot yoki xizmat uchun naqd pulda to'lashingiz mumkin.




33-rasm.

- "**Hisob-kitob" bo'limi** (33.1) — qabul qilish usuli va to'lov usuli tanlagandan so'ng, buyurtmaning umumiy qiymati hisoblab chiqiladi:
 - Buyurtma — buyurtma qilingan mahsulotlar va xizmatlarning umumiy summasi;
 - Eltib berish — eltib berish xizmati haqi (faqat mahsulotlar ushun);
 - Komissiya — tijorat platformasi xizmatlari uchun komissiya;
 - Jami to'lov uchun — umumiy qiymat.
- "**"Buyurtmani rasmiylashtirish" tugmasi** (33.2) — tanlangan mahsulot va xizmatlarga buyurtma berish.

Barchasi to'g'ri bajarilgan bo'lsa, buyurtma muvaffaqiyatli rasmiylashtiriladi va buyurtmalar ro'yxatiga qo'shiladi.

Buyurtma ro'yxati



34-rasm.

Ushbu bo'limda xaridorlar, sotuvchilar va eltuvchilar tomonidan buyurtmalarni boshqarish uchun buyurtmalar ro'yxati aks etadi. Oyna quyidagi elementlar va funksional imkoniyatlarga ega (34-rasmga qarang):

- **Sarlavha** (34.1): «Xarid | Tijorat | Eltib berish / Buyurtmalar / Ro'yxat»;
- **Kichik bo'lim menyusi** (34.2):
 - **Cheklar | Tafsilotlat** — xaridorlar uchun cheklar ro'yxatini ochish, sotuvchi va yetkazib beruvchilar uchun esa buyurtma tafsilotlarini ko'rish;
 - **Yangilash** — ro'yxatni yangilash;
 - **Yopish** — kichik bo'limni yopish;
- **Ro'yxat menyusi** (34.3):
 - **Qabul qilish** — buyurtmani etkazib berishni qabul qilish yoki qaytarilgan buyurtmani qabul qilish / eltib berish buyurtmasini qabul qilish / buyurtmani qabul qilish;
 - **Rad etish** — buyurtmani etkazib berishni rad etish yoki buyurtmani qaytarishni rad etish / eltib berishni rad etish / buyurtmalarni rad etish yoki qaytarish;
 - **Hisob** — tanlangan buyurtmalar uchun hisobni ochish. Agar to'lov turi naqd bo'lsa, sotuvchi yoki eltuvchi to'lovnini qabul qilganda "To'landi" tugmasini bosishi lozim;
 - **Ko'rish** — tanlangan varaqlarni ko'rish («Varaq bilan ishlash» bo'limga qarang);
- **Ro'yxat** — quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan buyurtma ro'yxati aks etadi: identifikator, sarlavha, versiya, miqdor, summa va holati. Ro'yxat elementi bosilganda, quyidagi amallarni bajarish mumkin:
 - **Bitta bosish** — faqat bitta ro'yxat elementini belgilash;
 - **Uzoq bosish** — bir nechta ro'yxat elementini belgilash.

Yakuniy qism

Ushbu qo'llanmada sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida samarali o'zaro muloqotni ta'minlaydigan onlayn tijoratning asosiy imkoniyatlari taqdim etilgan. E'lolar, artikullar hamda mahsulot va xizmat sotuvchilarini saralash, filrlash va batafsil ko'rib chiqish orqali foydalanuvchilar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni osongina topishlari va xarid yoki tijorat bo'yicha samarali qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, buyurtmalarni rasmiylashtirish va ularni boshqarish jarayoni, jumladan, QR-kodlarni skanerlash orqali buyurtmani tezkor topish imkoniyati o'zaro aloqani sezilarli darajada soddalashtiradi, uni tez va qulay qiladi. Mahsulot va xizmatlarni tanlashdan tortib buyurtmani qabul qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlar shaffof va oson boshqarilishi mumkin, bu esa xizmat ko'rsatish sifati va foydalanuvchi ishonchi oshirishga yordam beradi.

Qo'llanma har bir foydalanuvchiga (xaridor, sotuvchi yoki eltuvchi) bozorda o'z ishini optimallashtirish va onlayn tijoratda muvaffaqiyatga erishish imkonini beruvchi platformaning funksional imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun barcha zarur qadamlarni o'z ichiga oladi.

Ishonchimiz komilki, taklif qilingan funktsiyalardan to'g'ri foydalanish ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va tijorat jarayonini barcha ishtirokchilar uchun yanada qulay va foydali qiladi.